NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Karmana 210605, “Talqoq” MFY, Tel: (79)-532-28-38, (79)-532-36-40, e-mail: karmana@nv.uz

2022 - yil 30 - sentabr 262-5-71-Q/22 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Karmana tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman yo‘llardan foydalanish UK (J.Fayziyev), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (S.Sa’dullayev)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (A.Voxidov)ga mazkur yo‘l belgisi o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Karmana ovozi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Boltayev zimmasiga yuklatilsin.

ILOVA: 1

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r

Ko‘cha nomi

Joylashtirish joyi

Yo‘l belgisi nomi

1

M-37 xalqaro avtomobil yo’lining 158 km

o‘ng tomon

3.27—50 metrgacha to‘xtash taqiqlangan

2

4R 64A avtomobil yo’li 1+2 km oralig’i

Karmana dehqon bozori kirish darvozasi oldi (chap tomon)

3.27—50 metrgacha to‘xtash taqiqlangan

3

4R 64A avtomobil yo’li 2 km

Navoiy viloyat IIB YHXB binosi oldi (chap tomon)

3.27—50 metrgacha to‘xtash taqiqlangan

4

I.Karimov ko’chasi 0+1 km

o‘ng tomon

3.27—50 metrgacha to‘xtash taqiqlangan

5

A.Navoiy ko’chasi 2+3 km oralig’i

o‘ng tomon

3.27—50 metrgacha to‘xtash taqiqlangan

Hokim **F.Umarov**